

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o 'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojida falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish.....	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati.....	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l.....	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish.....	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili.....	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi.....	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati.....	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati.....	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 130.2:316.3(575.1)

MA'NAVIY AMALIYOT KATEGORIYASINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАТЕГОРИИ ДУХОВНОЙ ПРАКТИКИ

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE CATEGORY OF SPIRITUAL PRACTICE

Mo'ydinov Asilbek Adhamjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini chuqur tahlil qilinib, uning mohiyati, mazmuni va zamonaviy jamiyatdagi funksional ahamiyati falsafiy nuqtai nazardan yoritilgan. Ma'naviy amaliyot insonning ichki dunyosi, e'tiqodi, axloqiy tanlovi va ijtimoiy faoliyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik sifatida izohlangan. Tadqiqotda Sharq falsafasi, xususan, Forobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy kabi mutafakkirlarning qarashlari bilan bir qatorda, G'arb falsafasidagi aksiologik va ekzistensial yondashuvlar o'zaro solishtirib tahlil qilingan. Maqolada ma'naviy amaliyotning inson kamolotini ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy ongni yangilashdagi roli asoslab berilgan. Shu bilan birga, ma'naviyatning amaliy shakllari - diniy, axloqiy va madaniy faoliyat - jamiyat taraqqiyotining ma'naviy poydevorini yaratishda hal qiluvchi omil sifatida talqin qilingan. Tadqiqot natijalari ma'naviy amaliyotning hozirgi globallashuv jarayonlaridagi o'ri va ahamiyatini falsafiy jihatdan qayta ko'rib chiqishga xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье глубоко проанализирована социально-философская интерпретация категории духовной практики, раскрыта её сущность, содержание и функциональное значение в современном обществе с философской точки зрения. Духовная практика рассматривается как неразрывная связь между внутренним миром человека, его верой, нравственным выбором и социальной активностью. В исследовании сопоставляются и анализируются взгляды представителей восточной философии - в частности, таких мыслителей, как аль-Фараби, Ибн Сина и аль-Газали - с аксиологическими и экзистенциальными подходами западной философии. В статье обоснована роль духовной практики в обеспечении совершенствования личности, укреплении социальной стабильности и обновлении общественного сознания. Наряду с этим практические формы духовности - религиозная, нравственная и культурная деятельность - трактуются как решающий фактор в формировании духовного фундамента общественного развития. Результаты исследования способствуют философскому переосмыслению роли и значения духовной практики в условиях современных процессов глобализации.

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the socio-philosophical interpretation of the category of spiritual practice, revealing its essence, content, and functional significance in modern society from a philosophical perspective. Spiritual practice is understood as an integral connection between a person's inner world, faith, moral choice, and social activity. The study compares and analyzes the views of Eastern philosophers - in particular, al-Farabi, Ibn Sina (Avicenna), and al-Ghazali - with the axiological and existential approaches of Western philosophy. The article substantiates the role of spiritual practice in ensuring personal perfection, strengthening social stability, and renewing social consciousness. At the same time, the practical forms of spirituality - religious, moral, and cultural activity - are interpreted as decisive factors in forming the spiritual foundation of social development. The research findings contribute to the philosophical reconsideration of the role and significance of spiritual practice within the context of modern globalization processes.

Kalit so'zlar: ma'naviy amaliyot, falsafiy talqin, jamiyat, qadriyatlar tizimi, ma'naviyat, axloq, inson, ijtimoiy ong, ekzistensializm, aksiologiya, Sharq falsafasi, globallashuv.

Ключевые слова: духовная практика, философская интерпретация, общество, система ценностей, духовность, мораль, человек, общественное сознание, экзистенциализм, аксиология, восточная философия, глобализация.

Key words: spiritual practice, philosophical interpretation, society, system of values, spirituality, morality, human being, social consciousness, existentialism, axiology, Eastern philosophy, globalization.

KIRISH

Insoniyat tarixida ma'naviyat har doim jamiyat taraqqiyotining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lib kelgan. Ma'naviy amaliyot esa insonning ichki dunyosi, e'tiqodi, axloqiy tanlovi va ijtimoiy faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalovchi falsafiy kategoriya sifatida alohida ilmiy

e'tiborga loyiqdir. U nafaqat shaxsning axloqiy va ruhiy kamolotini, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi globallashuv davrida moddiy qadriyatlar ustuvorlik qilayotgan bir sharoitda ma'naviy amaliyotning mazmun-mohiyatini qayta ko'rib chiqish, uni zamonaviy falsafiy tafakkur bilan uyg'unlashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Sharq mutafakkirlaridan Forobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy singari allomalar asarlarida ma'naviy amaliyot inson kamolotining poydevori sifatida talqin etilgan bo'lsa, G'arb falsafasida u ekzistensializm va aksiologiya doirasida inson hayotining ma'no va qadriyat o'lchovlari bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Shu bois, ma'naviy amaliyotning ijtimoiy-falsafiy talqini inson va jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni, axloqiy qadriyatlar tizimining rivojlanish qonuniyatlarini va ijtimoiy ong transformatsiyasining ichki mexanizmlarini ochib berishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u ma'naviy amaliyot fenomenini faqat diniy yoki axloqiy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-falsafiy jarayonlarning markaziy elementi sifatida tahlil etadi. Shu orqali insonning ma'naviy o'sishi, jamiyatdagi barqarorlik va globallashuv sharoitida madaniy o'zlikni saqlab qolish muammolariga falsafiy yondashuv taklif etiladi.

Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida mamlakatda inson qadriini yuksaltirish, ma'naviyatni tiklash va ijtimoiy ongni yangilash davlat siyosatining markaziy yo'nalishiga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ma'naviy uyg'unishsiz yangi jamiyatni barpo etib bo'lmaydi". [1. 45-b.] Shu bois ma'naviy amaliyot kategoriyasini falsafiy tahlil qilish, uni zamonaviy ijtimoiy islohotlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb ilmiy vazifadir.

Raqamli transformatsiya, axborot oqimining kuchayishi va global madaniy ta'sirlar sharoitida insonning ma'naviy-axloqiy barqarorligini saqlab qolish, milliy o'zlikni asrab-avaylash va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlantirish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, Yangi O'zbekiston davrida ma'naviy amaliyotning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, u milliy g'oya, ma'naviyat siyosati va ijtimoiy barqarorlikning g'oyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqinini o'rganishda Sharq va G'arb falsafasi vakillarining asarlari hamda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining asarlarida ma'naviy amaliyot insonning ichki dunyosini takomillashtirish, jamiyatdagi axloqiy uyg'unlikni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning bosh manbai sifatida talqin etiladi. Masalan, Abu Nasr Forobiy o'zining qarashlarida ma'naviy amaliyotni jamiyat taraqqiyotining ma'naviy poydevori sifatida ko'rsatib, "fazilatlilar shahar" g'oyasini aynan ma'naviy etuklik mezonlari bilan bog'laydi [2. 87-b.]. Mazkur g'oyada jamiyat taraqqiyotining asosi moddiy boylikda emas, ma'naviy amaliyot - ezgulik, bilim va axloqiy etuklikda ekanini ta'kidlaydi. Uningcha, inson o'z fazilatlari orqali jamiyatning umumiy farovonligiga hissa qo'shsa, shahar fozil bo'ladi. Bu qarash ijtimoiy-falsafiy jihatdan shuni ko'rsatadiki, jamiyatning barqaror rivoji ma'naviy ong, maqsad va qadriyatlarning uyg'unligiga tayanadi. Forobiy fikricha, ma'naviy amaliyot - bu insonni komillikka, jamiyatni esa adolat va uyg'unlikka olib boruvchi kuchdir.

Ibn Sino ham insoniy kamolot, axloqiy tanlov va ruhiy uyg'unlikni amaliy faoliyat bilan birlashtiruvchi asosiy tamoyillarni ishlab chiqqan [3. 156-b.]. Alloma - inson kamolotini faqat bilim va tafakkurda emas, balki amaliy faoliyatdagi axloqiy tanlov orqali namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Uningcha, insonning haqiqiy qadri - uning ezgulikka yo'naltirilgan amallarida. Bu qarash ijtimoiy-falsafiy jihatdan shuni anglatadiki, jamiyat taraqqiyoti insonlarning ruhiy uyg'unlik, ma'naviy mas'uliyat va ongli faoliyat darajasiga bog'liq. Ibn Sino uchun ma'naviy amaliyot - bu insonning ichki dunyosi bilan tashqi harakatining birligi, ya'ni axloq, tafakkur va faoliyat uyg'unligida namoyon bo'ladigan ijtimoiy kamolot mezonidir.

Al-G'azzoliy esa, ma'naviyatni inson qalbining poklanish jarayoni sifatida talqin qilib, amaliy e'tiqod - "ilm, amal va ixlos" birligida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [4. 212-b.]. Ushbu yondashuv zamonaviy ma'naviy amaliyotning falsafiy tahlilida markaziy o'rinni egallaydi. G'azzoliy ma'naviyatni inson qalbining ichki islohoti, ya'ni ruhiy poklanish amaliyoti sifatida talqin qiladi. Uningcha, haqiqiy e'tiqod faqat so'zda emas, balki ilm, amal va ixlosning birligida namoyon bo'ladi. Bu fikr ijtimoiy-falsafiy jihatdan shuni anglatadiki, insonning ma'naviy yuksalishi faqat nazariy bilim bilan emas, balki axloqiy amaliyot va samimiy niyat orqali ro'y beradi. Shu tarzda Al-G'azzoliy insonni jamiyatning ma'naviy tayanchi sifatida ko'radi - u uchun komillik bu bilimni amalda qo'llash va qalbni halollik bilan uyg'unlashtirishdir.

FALSAFA

G'arb falsafasida esa ma'naviy amaliyot tushunchasi aksariyat hollarda aksiologik (qadriyatshunoslik) va ekzistensial (inson mavjudligining ma'nosi) yo'nalishlarda tadqiq qilingan. Immanuel Kant, inson faoliyatining ma'naviy mohiyatini "burch" va "axloqiy qonun" konsepsiyasi orqali tahlil qiladi [5. 88-b.]. Kant nazarida insonning ma'naviy mohiyati tashqi natijalarda emas, balki burchni anglab, unga muvofiq ongli harakat qilishda namoyon bo'ladi. "Axloqiy qonun" insonning ichki vijdonida yashaydi va uni ezgulikka yo'naltiradi. Shu bois, Kant uchun ma'naviylik - bu manfaat yoki majburiyatdan emas, vijdoniy ehtiyoj va ichki mas'uliyatdan kelib chiqqan ongli amaldir. Falsafiy jihatdan bu qarash insonni axloqiy avtonomiya va erkin tanlovga asoslangan mavjudot sifatida talqin qiladi.

Soren Kierkegaard esa ekzistensial yondashuvda ma'naviy amaliyotni insonning individual tanlovi va mas'uliyati sifatida ko'rsatadi [6. 112-b.]. Kierkegaardning bu qarashida ma'naviy amaliyot insonning ichki erkinligi va shaxsiy tanlovi bilan uzviy bog'langan. Unga ko'ra, insonning haqiqiy ma'naviyliги tashqi me'yorlarga bo'ysunishda emas, balki vijdon oldidagi javobgarligida namoyon bo'ladi. Har bir kishi hayotning ma'nosini o'zi izlab topadi va bu jarayon mas'uliyatli tanlov orqali amalga oshadi. Shu sababli Kierkegaard uchun ma'naviy amaliyot - bu insonning o'z mavjudligini anglash, qo'rquv va shubha ichida ham ichki e'tiqod va halollik bilan yashash jasoratidir. Falsafiy jihatdan bu yondashuv insonni erkin, javobgar va ma'naviy mustaqil mavjudot sifatida talqin etadi.

Martin Xaydegger va Gabriel Marcel kabi mutafakkirlar inson mavjudligining ma'nosi aynan ma'naviy tajriba orqali ochilishini ta'kidlaganlar. Ularning bu qarashlarida ma'naviy tajriba inson mavjudligining asl mohiyatini anglash vositasi sifatida talqin etiladi. Xaydegger uchun inson borliqni faqat ichki kechinma, xavotir va mas'uliyat orqali kashf etadi - ya'ni ma'naviy tajriba insonni o'z "borliqdagi joyini" tushunishga olib boradi [7. 243-b.]. Marsel esa ma'naviyatni mavjudlikning shaxsiy ishtiroki va muhabbat orqali ochilishi sifatida ko'radi: inson o'zini faqat boshqalar bilan ma'naviy aloqada anglay oladi. Shunday qilib, ularning qarashlari falsafiy jihatdan shuni ko'rsatadiki, insonning haqiqiy mavjudligi tajriba, e'tiqod va ichki ruhiy ochilish orqali namoyon bo'ladi; ma'naviy tajriba esa borliqni tushunishning eng chuqur shaklidir.

Zamonaviy falsafada Djon Roulzning nazariyasida ilgari surilgan adolat va teng imkoniyatlar g'oyasi ma'naviy amaliyotning ijtimoiy o'lchovini ochishda ahamiyatlidir, chunki adolat inson faoliyatidagi ma'naviy motivlar bilan bevosita bog'liqdir [8. 536-b.]. Roulzning adolat nazariyasi ma'naviy amaliyotning ijtimoiy o'lchovini ochib beradi, chunki u jamiyatdagi tenglik va axloqiy mas'uliyatni bir butun tizim sifatida ko'radi. Roulzga ko'ra, adolat - bu insonlarning o'zaro munosabatida vijdoniy kelishuv tamoyilidir; teng imkoniyatlar esa har bir shaxsning ichki qadrini tan olishni anglatadi. Falsafiy jihatdan bu qarash shuni ko'rsatadiki, adolat faqat huquqiy yoki siyosiy tushuncha emas, balki ma'naviy amaliyotning ijtimoiy shaklidir: inson o'z burchini adolatli tarzda bajarganda, u jamiyatdagi ma'naviy uyg'unlikni tiklaydi. Shu ma'noda Roulzning konsepsiyasi adolatni axloqiy niyat, empatiya va vijdon orqali amalga oshadigan faol ma'naviy jarayon sifatida talqin etadi.

Martha Nussbaum esa ma'naviyatni inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi axloqiy-hissiy omil sifatida talqin qiladi [9. 368-b.]. M.Nussbaumning bu qarashida ma'naviyat inson hayotining markaziy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etiladi. Unga ko'ra, ma'naviyat - bu insonning axloqiy sezgirligi va hissiy ongini kengaytiruvchi imkoniyatlar tizimidir. Inson o'z his-tuyg'ulari, hamdardligi va adolat tuyg'usi orqali o'zini ham, boshqalarni ham chuqurroq anglaydi. Falsafiy jihatdan bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, ma'naviy amaliyot inson imkoniyatlarini faqat aqliy emas, balki emosional va axloqiy tajriba orqali boyitadi. Nussbaum uchun ma'naviyat - bu insonni erkin, adolatli va mas'uliyatli mavjudotga aylantiruvchi axloqiy-hissiy etuklik holati, ya'ni shaxs kamolotining asosiy mezonidir.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan B.I.Matchanova, "Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi, chunki ular insonlarning o'zaro hurmat, adolat va hamfikrlik tamoyillarini shakllantiradi" [10. 397-b.] tahlil qilgan. Matchanova fikrida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar jamiyatning ichki barqarorlik asosini tashkil etuvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Unga ko'ra, insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, adolat va hamfikrlik faqat tashqi qonunlar bilan emas, balki ichki ma'naviy me'yorlar bilan ta'minlanadi. Falsafiy jihatdan bu yondashuv ijtimoiy uyg'unlikning aksiologik (qadriyatga asoslangan) modelini ifodalaydi: qadriyatlar inson ongida barqaror axloqiy tamoyillarni shakllantirib, jamiyatda o'zaro ishonch va birdamlik muhitini yaratadi. Shu bois, Matchanova

ta'kidlashicha, jamiyatning haqiqiy barqarorligi moddiy farovonlikda emas, balki ma'naviy uyg'unlik va axloqiy birlikda namoyon bo'ladi.

O.X.Tuxtayev: "Har bir jamiyat tayanadigan ma'naviy qadriyatlar qanchalik umuminsoniy mazmun-ega bo'lsa, u shunchalik umrboqiydir. ... Ma'naviyati boy insongina komil inson bo'la oladi," deb baholaydi [11. 78-b.]. Yuqoridagi fikrda ma'naviy qadriyatlar jamiyat hayotining barqarorlik mezonini va inson kamolotining manbai sifatida talqin qilinadi. Unga ko'ra, jamiyatning qadriyatlari qanchalik umuminsoniy mazmun kasb etsa, u shunchalik vaqt sinovidan o'tadi va madaniy uzluksizlikni ta'minlaydi. Falsafiy jihatdan bu yondashuv axloqiy universallik g'oyasiga asoslanadi: inson va jamiyatning mukammalligi faqat moddiy taraqqiyot bilan emas, balki umuminsoniy ma'naviy me'yorlarni o'zlashtirish orqali belgilanadi. "Ma'naviyati boy inson" deganda Tuxtayev insonning axloqiy erkinligi, ichki uyg'unligi va boshqalar bilan ma'naviy hamjihatlikda yashash qobiliyatini nazarda tutadi. Shu bois, bu qarash insonni jamiyatning ma'naviy tayanchi sifatida ko'radi va haqiqiy kamolotning manbaini ma'naviyatda mujassam ezgulik va umuminsoniylikda ko'rsatadi.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot dialektik yondashuv, aksiologik tahlil, tarixiy-mantiqiy metod va kompleks ijtimoiy-falsafiy tahlil usullariga asoslanadi. Dialektik metod ma'naviy amaliyotning rivojlanish dinamikasini va uning ijtimoiy ongda o'zgarishlar bilan uzviy aloqasini tahlil qilish imkonini beradi. Aksiologik yondashuv esa ma'naviy qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini belgilaydi, tarixiy-mantiqiy tahlil esa bu kategorianing shakllanish jarayonini qadimdan to hozirgacha izchillikda ochib beradi. Natijada, ma'naviy amaliyot kategoriyasi falsafiy bilishning nazariy-ob'ektiv sohasidan tashqari, amaliy-sotsial kontekstda ham insonning o'zlikni anglash, qadriyatlarni tanlash va ijtimoiy faoliyatda ularni ifoda etish mexanizmlarini tahlil qilish imkonini beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ma'naviy amaliyot jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va inson kamolotining asosiy falsafiy kategoriyasi sifatida namoyon bo'ladi. U insonning ichki ruhiy tajribasi bilan uning ijtimoiy faoliyatidagi axloqiy javobgarligini birlashtiruvchi ko'prik vazifasini bajaradi. Shu ma'noda, ma'naviy amaliyot insonni faqat bilish subyekti emas, balki ezgulikka yo'naltirilgan ongli amaliy faoliyat egasi sifatida ko'rsatadi.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro kabi allomalar ta'limotida ma'naviy amaliyot insonning axloqiy kamolotiga, qalb poklanishiga va ijtimoiy uyg'unlikka eltuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Forobiy "fazilatli shahar" konsepsiyasida ma'naviy etuklikni jamiyat taraqqiyotining poydevori deb bilsa, Ibn Sino insonni "axloqiy tanlov orqali ruhiy uyg'unlikka erishuvchi mavjudot" sifatida tahlil qilgan. Al-G'azzoliy esa "ilm, amal va ixlos" birligini ma'naviy poklanishning amaliy mexanizmi sifatida talqin etadi.

G'arb falsafasida esa Immanuel Kant, Soren Kierkegaard, Martin Xaydegger, Gabriel Marsel, Djon Roulz va Martha Nussbaumlarning qarashlari ma'naviy amaliyotning inson erkinligi, axloqiy tanlov va ijtimoiy adolat bilan bog'liqligini ochib beradi. Kant uchun ma'naviylik "burch"ni ongli ravishda bajarish orqali ro'yobga chiqsa, Kierkegaard uchun u shaxsiy mas'uliyat va vijdoniy jasoratdir. Xaydegger va Marsel nazarida ma'naviy tajriba inson borlig'ining eng chuqur ma'nosini anglashga olib boradi, Roulz va Nussbaum esa ma'naviyatni ijtimoiy adolat va inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi axloqiy omil sifatida izohlaydilar.

Mahalliy tadqiqotchilardan B.I.Matchanova, O.X.Tuxtayevlarning ishlarida ma'naviy qadriyatlar jamiyat barqarorligining tamal toshi sifatida baholangan. Matchanova ta'kidlaganidek, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar insonlarda hurmat, adolat va hamfikirlik tamoyillarini shakllantiradi, Tuxtayev esa ma'naviyatning umuminsoniy mazmuni jamiyat umrboqiyligini belgilaydi.

Tadqiqot muhokamalari shuni ko'rsatadiki, ma'naviy amaliyot faqat diniy yoki shaxsiy tajriba emas, balki ijtimoiy ong, axloqiy madaniyat va milliy qadriyatlarning harakatdagi shaklidir. U inson faoliyatining barcha jabhalarida - ta'lim, siyosat, iqtisod, san'at va madaniyatda - ma'naviy mas'uliyatni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, ma'naviy amaliyotning ijtimoiy-falsafiy mohiyati quyidagilarda ifodalanadi:

1. U insonni ichki ruhiy uyg'unlik va axloqiy mas'uliyatga yetaklaydi;
2. Jamiyatda adolat, ishonch va birdamlikni ta'minlaydi;
3. Ma'naviyatni amaliy faoliyatga aylantirish orqali barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi.

Ta'kidlash kerakki, ma'naviy amaliyot falsafiy kategoriya sifatida insonning ma'naviy ongini harakatga aylantiruvchi, jamiyatni esa ma'naviy uyg'unlik sari etaklovchi kuch ekanligi isbotlandi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ma'naviy amaliyot inson va jamiyat o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ifodalovchi, ijtimoiy ongni harakatga aylantiruvchi falsafiy kategoriyadir. U nafaqat shaxsning ichki ruhiy tajribasini, balki uning axloqiy pozitsiyasi, jamiyatdagi mas'uliyati va qadriyatlar tizimi bilan o'zaro uyg'unligini anglatadi.

Sharq falsafasining buyuk allomalari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro va boshqalar ma'naviy amaliyotni inson kamolotining asosi sifatida talqin etganlar. Forobiy "fazilatli shahar" g'oyasida ma'naviyatni jamiyat barqarorligining poydevori deb bilgan bo'lsa, Ibn Sino ma'naviy amaliyotni axloqiy tanlov va ruhiy uyg'unlik bilan bog'laydi. Al-G'azzoliy esa "ilm, amal va ixlos" birligini inson qalbining poklanish jarayoni sifatida izohlaydi. Bu yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, Sharq tafakkurida ma'naviy amaliyot ezgulik, adolat va ijtimoiy uyg'unlikni shakllantiruvchi faol jarayondir.

G'arb mutafakkirlari Immanuel Kant, Soren Kierkegaard, Martin Xaydegger, Gabriel Marsel, Djon Roulz, Martha Nussbaum kabi faylasuflarning nazariyalarida ham ma'naviyat inson mavjudligining markazida turadi. Kant ma'naviyatni "burch" va "axloqiy qonun" orqali vijdoniy ongga bog'lasa, Kierkegaard uni individning tanlovi va mas'uliyatida ko'radi. Xaydegger va Marsel ma'naviy tajribani inson borligining ma'nosini ochuvchi vosita deb talqin etadi, Rawls adolatni ma'naviy amaliyotning ijtimoiy shakli sifatida izohlaydi, Nussbaum esa ma'naviyatni inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi axloqiy-hissiy omil deb baholaydi.

B.I.Matchanova, O.X.Tuxtayevlar kabi tadqiqotchilarimizning ilmiy qarashlari ma'naviy qadriyatlarning jamiyat barqarorligi va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlovchi omil sifatidagi o'rnini ochib beradi. Matchanova ma'naviy qadriyatlarni insonlar orasida hurmat va adolatni shakllantiruvchi kuch sifatida talqin etgan bo'lsa, Tuxtayev ularni umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan barqarorlik negizi sifatida ko'rsatadi. Ularning fikricha, jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonini - ma'naviyatning ijtimoiy ong va axloqiy madaniyatdagi amaliy ifodasidir. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- ma'naviy amaliyot inson tafakkuri, e'tiqodi va faoliyatining birligi bo'lib, shaxsni ichki uyg'unlik va ijtimoiy mas'uliyat sari etaklaydi;
- jamiyatda adolat, ishonch va birdamlikni mustahkamlovchi aksiologik tizimni shakllantiradi;
- ma'naviyatni amaliy faoliyatga aylantirish jamiyatni barqaror, ezgulikka yo'naltirilgan ijtimoiy tizimga aylantiradi;
- ma'naviy amaliyotning ijtimoiy-falsafiy mohiyati insonni vijdon, ongli tanlov va ijtimoiy adolatga asoslangan hayot tarziga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy amaliyot - bu insonning o'z-o'zini va jamiyatdagi o'rnini anglash jarayoni bo'lib, u milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtiruvchi ijtimoiy-falsafiy mexanizm sifatida insoniyat taraqqiyotining ma'naviy asosini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B. 400.
2. Абу Наср Форобий Фозил одамлар шаҳри (Таржимонлар: Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон) - Тошкент: "Янги аср авлоди" нашриёт-матбааси, 2022. - С. 118.
3. Ибн Сина. Исцеление. Теология. В двух томах. Т. I-II (перевод Ибрагим Тауфик Камель). - Москва: Садр, 2024. - С. 720.
4. Абу Хамид Мухаммад аль-Газали ат-Туси. «Ихйа' 'улум ад-дин» Возрождение религиозных наук Том I. Первая четверть о видах поклонения. Часть I. (Перевод с арабского Насыров И.Р., Ацаев А.С.) - Москва: Издательский дом «Нуруль Иршад», 2007. - С. 585.
5. Кант Иммануил. Критика чистого разума; Критика практического разума; Критика способности суждения. (пер. Н.О.Лосский и др.) Москва: цифр. издат. LitRes, 2024. - С.1527.
6. Кьеркегор Серен. Страх и трепет (Исаев С.А., Исаева Н.В.) - Москва: Академический проект, 2023. - С. 154.
7. Heidegger M. Being and Time. (Transl. by Marlow Finnigan) - Independently Published, 2024. - P. 592.
8. Ролз Джон. Теория справедливости. - Москва: Издательство Ленанд. 2017. - С. 536.
9. Нуссбаум Марта. Женщины и человеческое развитие: подход возможностей (пер. с англ.) - Москва: Академический проект; Издательский дом «Гуманитарная Академия», 2002. - С. 368.
10. Матчанова Барно Иркиновна Маънавий-акслюки кадрияларнинг жамият идтимой баркаорлигидаги роли // ОРИЕНСС. 2024. №10. - Б. 392-397. / URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-naviy-axloqiy-qadriyatlarining-jamiyat-ijtimoiy-barqarorligidagi-rol>
11. Tuxtayev O.X Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni o'rni. (Uslubiy qo'llanma) - Toshkent: "QAMAR MEDIA", 2022. - B. 78.

12. Locke John. An Essay Concerning Human Understanding. (Edited by Roger Woolhouse) - Penguin: Classics, Revised edition, 2010. - P. 698.
13. Юм Дэвид. Исследование о человеческом познании. - Москва: Рипол-Классик, 2022. - С. 256.
14. Декарт Р. Размышления о первой философии. (Пер. с лат. М.М.Позднев) - Санкт-Петербург: Азбука-Классика, 2000. - С. 320.
15. Спиноза Бенедикт. Этика, доказанная в геометрическом порядке. (Перевод с латинского: Н.А.Иванцов) - Москва: Издательство: Академический проект, 2018. - С. 335.